


2019 yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi iste'mol sektorida inflyatsiya darajasi

2019 yilning sentabrida iste'mol bozorida o'rtacha narxlar darajasining oy davomidagi o'sish sur'ati 1,3 %ni tashkil etdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol narxlari indeksi (INI), %



Umumiy hisobda 2019 yilning to'qqiz oyi davomida iste'mol bozorida tovarlar va xizmatlar narxi 9,7 %ga qimmatlashdi.

2018 yilning sentabr oyiga nisbatan respublika iste'mol sektoridagi o'rtacha narxlar darajasi 16,0 %ga oshgan.

Taqqoslash uchun: 2018 yilning sentabrida tovarlar va xizmatlar narxlari oy davomida o'rtacha 1,8 %ga, 2017 yilning dekabr oyiga nisbatan 8,1 %ga, 2017 yilning sentabriga nisbatan esa 16,2 %ga qimmatlashgan.



Izoh: shu va keyingi infografikalardagi rim raqamlari oylarning tartib raqamini aks ettiradi.

Yuqorida keltirilgan 2019 yilning yanvar-sentabr oylaridagi qisqa muddatli oylik iste'mol narxlari va tariflari dinamikasi ma'lumotlarida aks etganidek, mazkur davr mobaynida narxlar qimmatlashishining eng yuqori cho'qqisi avgust oyida ro'yxatga olingan (102,9 %).

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning mos davridagi qisqa muddatli oylik iste'mol narxlari indeksi ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, umumiy ko'rsatkichning maksimal darajadagi o'sish sur'ati yanvar oyida qayd etilgan (102,7 %).

2019 va 2018 yillarning to'qqiz oyi davomidagi qisqa muddatli oylik umumiy iste'mol narxlari indekslarini taqqoslash natijalariga ko'ra, ko'rsatkichlar orasidagi maksimal uzilish darajasi ham avgust oyi natijalariga to'g'ri keladi (2019 yilda 102,9 %, 2018 yilda 100,3 %).

O'tgan oyga nisbatan 2018 yilning barcha oylari hamda 2019 yilning to'qqiz oyidagi qisqa muddatli iste'mol narxlari indeksi dinamikasini tahlillari natijalariga ko'ra, 2019 yilning avgust oyidagi iste'mol narxlari

va tariflari indeksi nafaqat joriy yilning o'tgan davri davomida, balki so'nggi 21 oy mobaynidagi eng yuqori ko'rsatkich bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol narxlar indeksi dinamikasi, %

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2018 va 2019 yillarning birinchi to'qqiz oyi davomidagi iste'mol narxlar indeksi natijalariga asosan, yanvar oyidan iyul oyiga qadar ko'rsatkichlar orasidagi tafovut avgust va sentabr oylari o'rtasidagi farq kabi ahamiyatli emas edi. Shunday qilib, birinchi sakkiz oylik ko'rsatkichlar orasidagi diapazon yanvar oyida qayd etilgan bo'lsa (102,7 %ga qarshi 101,5 %, yoki 1,2 darajada), avgust oyiga kelib farqlanish darajasi 2,0 darajani tashkil etgan va sentabr oyida 1,6 darajaga teng bo'lgan.

O'rtacha oylik narx indeksleri o'sish sur'atining¹ hisoblanish tartibiga ko'ra, 2019 yilning yanvar-sentabr oylari davomidagi iste'mol narxlar indeksi 1,0 %ni, 2018 yilning yanvar-sentabrda esa 0,9 %ni tashkil etgan.

Quyida 2018 yilning yanvaridan umumiy iste'mol narxlar indeksining oylik dinamikasi yillik ko'rinishda aks ettirilgan:

¹ o'tgan oyga nisbatan yarim yillikning har bir o'rganilayotgan oyidagi narx indeksleri o'sishining o'rtacha geometrik ko'rsatkichi sifatida aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol narxlar indeksini dinamikasi, %

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan




Joriy yilning yanvar-iyul oylarida yillik umumiy iste'mol narxlar indeksining nisbatan barqarorligidan so'ng, avgust oyida sezilarli darajada oshdi (113,5 % dan 116,5 % gacha), shundan so'ng sentabr oyida biroz pasayish kuzatildi (16,0% gacha). Umuiy hisobda 2018 yilning yanvar oyidan 2019 yilning avgust oyiga qadar qayd etilgan minimal ko'rsatkich 2019 yilning yanvar oyiga to'g'ri kelsa (113,0 %), maksimal ko'rsatkich 2018 yilning yanvar oyida qayd etilgan (120,1 %).

Yirik guruhlar bo'yicha narxlar o'zgarishi tahlillariga ko'ra, 2019 yilning sentabr oyi natijalariga asosan, oy davomida tovarlar narxlar o'rtacha 1,2 %, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari 1,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 0,9 %ga ko'tarilgan. Xizmatlar narxlar esa oy davomida 2,0 %ga qimmatlashdi.

Taqqoslash uchun: 2018 yilning sentabrida tovarlar narxlar oy davomida o'rtacha 1,9 %, xizmatlar esa 1,2 %ga qimmatlashgan. Jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sish sur'ati 3,3 %ni tashkil etgan vaqtda nooziq-ovqat mahsulotlar narxlar faqatgina 0,3 %ga ko'tarilgan.

2019 yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
asosiy guruhlarning iste'mol narxlari indeksi, %

o'tgan oyga nisbatan




Umumiy hisobda, 2019 yilning uch choragi davomida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 8,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 8,8 %, xizmatlar 13,7 %ga qimmatlashgan.

Taqqoslash uchun: 2017 yilning dekabr oyiga nisbatan 2018 yilning sentabrda oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 6,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 9,1 %, xizmatlar esa 10,1 %ga qimmatlashgan.

Yillik ko'inishda (2019 yil sentabr oyi 2018 yilning sentabr oyiga nisbatan) oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 17,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 12,1 %, xizmatlar 19,5 %ga ko'tarildi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning sentabr oyi 2017 yilning sentabr oyiga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar narxlari mos ravishda 17,5 %, 16,6 % va 11,8 %ga qimmatlashgan.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy guruhlarining iste'mol narxlari indeksi, %



2017 yilning dekabr oyiga nisbatan hisoblangan uzoq muddatli oziq-ovqat mahsulotlari narxlari indeksi 124,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 122,3 %, xizmatlar 131,7 %ni tashkil etgan. Ushbu davr mobaynida umumiy ko'rsatkich 25,3 %ga ko'tarilgan.



2017 yilning dekabr oyiga nisbatan
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
tovar va xizmatlar asosiy guruhlarining
iste'mol narxlari indeksi, o'sish sur'ati %




2018 yilning yanvar oyidan 2019 yilning sentabr oyiga qadar oziq-ovqat mahsulotlari narxlari indeksining o'rtacha oylik o'sish sur'ati 1,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari 1,0 %, xizmatlar narxlarining o'sish sur'ati 1,3 %ni tashkil etgan.

Har bir yirik guruhning salmoq vaznini inobatga olgan holda narxlar o'zgarishi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yilning sentabr oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi umumiy indeksning ko'tarilishiga 0,6 foiz darajasida (keyingi o'rinlarda f.d.), nooziq-ovqat mahsulotlari 0,3 f.d. va xizmatlar 0,4 f.d.da ta'sir ko'rsatgan.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlarining narxlari o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlari indeksi o'sishidagi ta'sir, f.d.

o'tgan oyga nisbatan



Taqqoslash uchun: 2018 yilning sentabr oyida umumiy iste'mol narxlari indeksi asosan oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko'tarilishi ta'siri ostida shakllandi (1,4 f.d.). Nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarining qimmatlashishi umumiy ko'rsatkichga 0,1 f.d.da, xizmatlar 0,3 f.d.da ta'sir etgan.


Salmoq ko'rsatkichlari jihatidan asosiy guruhlar bo'yicha tovarlar va xizmatlar narxlarining ko'tarilishi hamda ularning oy davomidagi umumiy iste'mol narxlari indeksidagi ulushi shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yilning sentabr oyidagi umumiy ko'rsatkichda oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 45,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 22,3 % va xizmatlar ulushi 32,6 %ni tashkil etgan

Taqqoslash uchun: 2018 yilning sentabrida oy davomidagi umumiy iste'mol narxlari indeksi o'sishiga asosiy ta'sir etuvchi omil oziq-ovqat mahsulotlari tomonga siljigan vaqtda (79,7 %) nooziq-ovqat mahsulotlar hamda xizmatlar ta'siri faqatgina 6,2 % va 14,1 %dan iborat bo'lgan.




Asosiy guruhlar bo'yicha tovarlar va xizmatlar narxlari o'zgarishi va ularning umumiy INI o'sishidagi ta'sir ulushi, %

o'tgan oyga nisbatan



2018 yilning dekabr oyiga nisbatan joriy yilning sentabr oyida asosiy guruhlar bo'yicha tovarlar va xizmatlar narxlarining ko'tarilishi va ularning umumiy iste'mol narxlari indeksi o'sishiga qo'shgan hissasiga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining qimmatlashishi natijasida umumiy ko'rsatkich 3,7 f.d.ga, nooziq-ovqat mahsulotlari ta'sirida 3,0 f.d.ga, xizmatlar ulushiga ko'ra 3,0 f.d.ga o'sdi.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlarining narxlari o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlari indeksi o'sishidagi ta'siri, f.d.



Joriy yilning iyul va avgust oyi natijalarini inobatga olmaganda, 2018 yilning dekabr oyiga nisbatan umumiy iste'mol narxlari indeksining o'sishi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining qimmatlashishi bilan bog'liq. Iyul oyida oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining o'sishi hamda ularning ta'sirida tenglik kuzatilgan (2,0 f.d.dan). Avgust oyida har uch guruhning ta'siri maksimal darajada bir-biriga yaqinlashib, biroq oziq-ovqat mahsulotlari ta'siri biroz ustunlikka ega bo'ldi (3,0 f.d., 2,7 f.d., 2,5 f.d.). Sentabr oyida esa nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar ta'siri bir xil ko'rsatkichni tashkil etib (0,3 f.d.dan), oziq-ovqat mahsulotlari ta'siriga nisbatan 0,7 f.d.da ortda qolgan.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2018 yilning sentabrda umumiy iste'mol narxlari indeksi tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining o'sishi yetakchi o'rinni band etgan vaqt (3,2 f.d.) xizmatlar 2,6 f.d.da, oziq-ovqat mahsulotlari ta'siri esa 2,3 f.d.ni tashkil etgan.

2019 va 2018 yillarning sentabr oylari uchun qisqa muddatli umumiy iste'mol narxlari indeksidan farqli ravishda, o'tgan yilning dekabriga

nisbatan taqqoslanayotgan davrlarda uning tuzilishi bu kabi sezilarli uzilishlarga ega emas. Shunday qilib, 2019 yilning sentabr oyida oziq-ovqat mahsulotlarining ta'siri 37,9 % (2018 yilning sentabridagi 32,1 % ga qarshi), nooziq-ovqat mahsulotlari 31,4 % (39,5 % ga qarshi), xizmatlar 30,7 % tashkil etdi (28,4 % ga qarshi).





Asosiy guruhlar bo'yicha tovarlar va xizmatlar narxlari o'zgarishi va ularning umumiy INI o'sishidagi ta'siri ulushi, %

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

2018 yil
sentabr

2019 yil
sentabr



○ oziq-ovqat mahsulotlari ○ nooziq-ovqat mahsulotlari ○ xizmatlar

Yillik ko'rinisdagi (2019 yil sentabr 2018 yilning sentabriga nisbatan) umumiy iste'mol narxlari indeksi tahlili quyidagicha ko'rishga ega bo'lgan:

Oziq-ovqat narxlarining o'sishi ushbu davrda jami ko'rsatkichlarning o'sishiga qo'shgan hissasi 7,6 f.d.ni tashkil etgan. Nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi natijasida umumiy ko'rsatkich qo'shimcha ravishda 4,2 f.d.ga o'sdi. Shuningdek xizmatlar uning o'sishiga yana 4.2 f.d.da ta'sir etdi.

Salmoq ko'rsatkichlari bo'yicha oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar narxlarning o'sishi ta'sirining nisbati mos ravishda 47,5 %, 26,1 % va 26,4 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning sentabr oyiga nisbatan 2018 yilning sentabrida umumiy iste'mol narxlari indeksi oziq-ovqat (7,6 f.d.),

nooziq-ovqat mahsulotlar (5,9 f.d.) va xizmatlar (2,7 f.d.) narxlarining qimmatlashishi ta'siri ostida tashkil topgan.

Salmoq ulushlari bo'yicha ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 46,9 %, 36,4 % va 16,7 % ni tashkil etgan.




2019 yilning sentabr oyida asosiy guruhlar bo'yicha tovarlar va xizmatlar narxlari o'zgarishi va ularning umumiy INI o'sishidagi ta'siri ulushi o'tgan yilning mos oyiga nisbatan

foiz darajasida, f.d.



salmoq ko'rsatkichlar, %



○ oziq-ovqat mahsulotlari

○ xizmatlar

○ nooziq-ovqat mahsulotlari

➔ barcha turdagi tovarlar va xizmatlar

Oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi

Oy davomida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha 1,4 %ga ko'tarilib, bu esa o'tgan oydagi mos ko'rsatkichga nisbatan 0,9 %ga pastroq. Bu o'z navbatida umumiy iste'mol narxlari indeksining 0,6 f.d.da ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

2019 yil boshidan buyon ushbu guruh tovarlari narxlari o'rtacha 8,4 %ga qimmatlashib, mazkur davr mobaynidagi narxlarning o'rtacha oylik o'sish sur'ati 0,9 %ni tashkil etdi.

Yillik ko'rinishda (2019 yil sentabr oyi 2018 yilning sentabriga nisbatan) oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 17,5 %ga ko'tarilgan.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %

2019 yil sentabr



2018 yil sentabr



Taqqoslash uchun: o'tgan oy davomida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining 2,3 %ga oshganligi ushbu oydagi umumiy iste'mol narxlari indeksining ko'tarilishiga 1,0 f.d.da ta'sir etgan.

2019 yilning yanvar-avgust oylari davomida oziq-ovqat mahsulotlari o'rtacha 6,9 %ga, yillik davrda esa narxlarning ko'tarilishi 19,7 %ni tashkil etgan.

2019 yil boshidan o'tgan davr mobaynida oziq-ovqat mahsulotlarininga oylik qisqa muddatli narxlar dinamikasi an'anaviy

boshqa guruhlarga nisbatan ko'proq ravishda sezilarli darajadagi tebranishlarga duch kelgan. Shunday qilib, oyma-oy narxlar ko'tarilishi diapazoni yanvar oyida 2,8 %dan may oyida 0,5 %gachani tashkil etgan bo'lsa, joriy yilning iyun va iyul oylarida mavsumiy omillar ta'sirida ushbu guruh mahsulotlari narxleri arzonlashgan. Avgust oyiga kelib esa oziq-ovqat mahsulotlari narxleri yana ko'tarila boshladi (oy davomida 2,3 %). Ushbu tendensiya sentabr oyida ham davom etdi (oy davomida 1,4 %).

Ma'lumot uchun: 2018 yil va 2019 yilning to'qqiz oyi davomidagi oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxleri indeksi dinamikasi tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, narxlarning eng yuqori darajada qimmatlashishi 2018 yilning yanvar oyida qayd etilgan (3,5 %). Narxlarning sezilarli darajada pasayishi esa o'sha yilning iyul oyida kuzatilgan (2,3 %).



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
oziq-ovqat mahsulotlarining
iste'mol narxleri indeksi dinamikasi, %

o'tgan oyga nisbatan



O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2018 va 2019 yilning uch choragi davomida oziq-ovqat mahsulotlaridagi narxlarning o'zgarishi dinamikasi o'xshash tendensiyaga ega bo'lganligini quyida keltirilgan ma'lumotda ko'rish mumkin. Biroq, taqqoslanayotgan davrlarning birinchi choragida grafik chiziqlari bir-biriga yaqinroq bo'lsa, keyingi oylarda ular orasidagi tafovut kengaya boshladi. Ushbu jarayon avgust oyiga kelib eng sezilarli darjaga yetdi (2018 yilda 102,6 % 2019 yildagi 106,9 %ga qarshi).



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
oziq-ovqat mahsulotlarining
iste'mol narxlarini indeksi dinamikasi, %

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



2019 va 2018 yillarning sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining yillik iste'mol narxlarini indeksi ko'rsatkichlari bir xil bo'lishiga qaramay (117,5 %), so'nggi ikki yilning yanvar-sentabr oylarida uning o'zgarishi dinamikasi tahlillariga ko'ra, mazkur davrlarda ushbu guruh tovarlari narxlarning o'zgarishini ko'p qirrali tendensiyalarga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, 2018 yilning yanvar oyida narxlar o'sishning eng yuqori ko'rsatkichi qayd etilgandan so'ng (26,8 %), yillik iste'mol narxlarini indeksi pasayish tomon yo'nala boshladi va 2018 yilning avgust oyida o'sish sur'atining eng minimal ko'rsatkichi qayd etildi (15,4 %). 2019 yilning xuddi shu davrida, yanvar oyida esa aksincha, iste'mol narxlarini indeksining yillik minimal o'sishi sur'ati qady etilgan bo'lib (14,1 %), keyinchalik 19,7 % gacha ko'tarildi.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
oziq-ovqat mahsulotlarining
iste'mol narxlarini indeksi dinamikasi, %

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy guruhlari narxlarini tendensiyasiga ko'ra, joriy yilning sentabr oyida tuxum (8,2 %), go'sht, parranda go'shti va baliq (2,7 %), shakar, choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari (1,6 %), shuningdek, umumiy ovqatlanish muassasalari (1,8 %) narxlarini davomida boshqalarga nisbatan sezilarli darajada oshdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan oy davomida narxlarining ko'tarilishi bo'yicha yetakchi o'rinlar go'sht, parranda go'shti va baliq (6,3 %), tuxum (3,5 %) va alkogolsiz ichimliklarga (3,1 %) tegishlidir.

O'tgan yilning sentabr oyida narxlarining qimmatlashishi bo'yicha yetakchi pog'onalarni non mahsulotlari (10,9 %), meva-sabzavotlar (3,8 %) va tuxum (2,7 %) band etgan.

Yil boshidan buyon go'sht, parranda go'shti va baliq (18,0 %), sut mahsulotlari (12,5 %), alkogolsiz ichimliklar va spirtli ichimliklar (11,8 % va 9,9 %), shuningdek, umumiy ovqatlanish (16,5 %) narxlarini sezilarli darajada qimmatlashgan.

Taqqoslash uchun: 2018 yilning yanvar-sentabr oylari davomida non mahsulotlari (21,0 %), go'sht, parranda go'shti va baliq (17,1 %), spirtli ichimliklar (12,6 %) narxlarini boshqalarga nisbatan yuqori daraja ko'tarilgan.

Quyida 2019 yilning yanvar oyidan sentabr oyigacha asosiy guruhlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi taqdim etilgan:

**2019 yilning yanvar-sentabr oylarida
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha non mahsulotlarining
iste'mol narxlari indeksi, %**

o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan




Sentabr oyida non mahsulotlari guruhi orasida oy davomida yorma va dukkakli mahsulotlar (o'rtacha 1,8 %), jumladan, guruch narxlari (1,9 %) sezilarli darajada oshgan. Bundan tashqari bug'doy uni 1,0 %ga, shuningdek, pishiriqlar, makaron va barcha turdagi non mahsulotlari narxlari qimmatlashdi (0,4 %dan 0,9 % diapazoni oralig'ida).


O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan don va dukkakli mahsulotlar narxlari 14,9 %ga, jumladan, guruch 17,1 %ga, vermishel va makaron mahsulotlari 13,3 %ga, budoy uni 6,3 %ga, oliy navli bug'doy unidan non 5,2 %ga, birinchi navli bug'doy undan non 2,4 %, obinon 5,0 %ga qimmatlashdi.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha go'sht, parranda go'shti va baliq
mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %

o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Joriy yilning sentabr oyida go'sht, parranda go'shti va baliq guruhi narxlari 2,7 %, jumladan, mol go'shti (suyaksiz go'shtidan tashqari) narxlari 3,5 %ga, suyaksiz mol go'shti 2,3 %ga, qo'y go'shti 2,9 %ga, parranda go'shti (son qismlardan tashqari) 3,0 %ga, tovuq boldiri va son qismlari 1,6 %ga qimmatlashdi.

Yil boshidan buyon ushbu mahsulotlar narxlari o'rtacha 18,0 %ga ko'tarildi. Bu davrda mol go'shti (suyaksiz go'shtidan tashari) 21,6 %ga, suyaksiz mol go'shti 19,1 %ga, qo'y go'shti 19,5 %, tirik va sovutilgan baliq 16,9 %, parranda go'shti (son qismlardan tashqari) 3,9 %ga, tovuq boldiri va son qismlari narxlari 3,7 %ga oshdi.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha sut mahsulotlarining
iste'mol narxlari indeksi, %

o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Yanvar va fevral oylarida sezilarli o'sishdan so'ng (oy davomida 3,2 %) va martdan iyulgacha narxlar o'sishining mavsumiy pasayishidan so'ng (oy davomida 1,5 %dan 0,1 %gacha) sut va undan tayyorlangan mahsulotlar narxlari ketma-ket ikki oy mobaynida 1,0 %ga oshdi. Shu bilan birga, sentabr oyida smetana va qaymoq narxlari oyiga 1,5 %, yogurt va sut 1,4 %, konservalangan sut 1,3 %, qattiq pishloq 0,9 %, suyultirilgan va kolbasali pishloqlar 0,8 %ga qimmatlashdi.

Umumiy hisobda 2019 yilning uch choragi davomida sut mahsulotlari narxlari 12,5 %ga ko'tarildi. Ushbu davrda qaymoq 15,4 %, sut 15,3 %, qattiq pishloqlar 9,7 %, suyultirilgan va kolbasali pishloqlar 8,5 %, smetana 9,0 %, sut konservalari 6,0 %, yogurtlar 5,8 %ga qimmatlashgan.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tuxumning
iste'mol narxlari indeksi, %

o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Joriy yilning to'qqiz oyi davomidagi tuxum narxining qisqa muddatli indekslari dinamikasi sezilarli darajadagi o'zgarishga duch kelgan. Shunday qilib, narxlar yanvar oyida 1,3 %ga ko'tarilganidan so'ng, fevraldan iyulgacha narxlar oyma-oy 0,2 %dan (fevral) 3,5 %gacha (iyul) bo'lgan oraliqda pasayib, keyingi oylar davomida narxlar yana ko'tarila boshladi (avgustda 3,5 %, sentabrda 8,2 %).

O'tgan yilning dekabriga nisbatan yanvar-sentabr oylarida tuxum narxlari sezilarli darajada o'zgardi. Shu bilan birga, yanvar-iyul oylarida ularning narxi 8,9 %ga pasaydi. Keyingi ikki oy ichida narxlar 12,0 %ga oshdi va buning natijasida 2019 yil yanvar-sentabr oylarida tuxumning iste'mol narxlari indeksi 102,0 %ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha meva-sabzavot mahsulotlarining
iste'mol narxlari indeksi, %



Yil davomida meva-sabzavot mahsulotlari narxlari dinamikasi an'anaviy ravishda ko'p o'zgarishlarga ega bo'lgan. Oy davomida narxlar o'sishining eng yuqori darajasi yanvarda qayd etilib (8,3 %), maksimal darajadagi pasayish iyulda (11,1 %) ro'yxatga olingan.

Joriy yilning sentabrida mevalar, sabzavotlar va kartoshka narxlari oy davomida 1,1 %ga arzonlashdi. Bundan tashqari, ushbu guruh tovarlari narxlarning o'zgarishi bir maromda kechmadi. Narxlarining pasayishi qovun (15,5 %), piyoz (12,8 %), uzum (9,5 %), oshqovoq (7,1 %), tarvuz (7,0 %), lavlagi (0,9 %) va nok (0,5 %) mahsulotlarida kuzatildi. Shu bilan bir qatorda, sarimsoq (9,3 %), karam (7,4 %), pomidor (5,7 %), sabzi (4,6 %), bodring va kartoshka (3,9 %), olma (3,4 %) va banan (1,1 %) narxlari qimmatlashdi.

Umumiy hisobda joriy yilning to'qqiz oyi davomida bodring 78,4 %, pomidor 68,4 %, tarvuz 30,8 %, qovun 13,1 %, nok 6,6 %, karam 5,3 % va kartoshka narxlari 0,9%ga arzonlashgan.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha shakar, choy va boshqa
mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %

o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



2019 yilning yanvar-sentabr oylari davomida shakar, choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari narxlari har oyda 0,1 %dan (iyul) 1,7 %gacha (fevral) bo'lgan oraliqda ko'tarilgan. Sentabr oyida ushbu guruh tovarlari narxlarning o'sishi 1,6 %ni tashkil etdi. Oy davomida shakar 4,5 %, qandolat mahsulotlari o'rtacha 1,0 %, qahva va choy 0,4 %, boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlari (tuz, ziravorlar, qayla va boshqalar) narxlari qimmatlashdi (1,0 %).

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan shakar va qandolat mahsulotlari 8,9 %, qahva va choy 2,9 %, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 3,8 %ga oshdi.

Sentabr oyida yog' va moy mahsulotlaridan oziq-ovqat yog'lari 1,5 %, sariyog' 1,3 %, kungaboqar yog'i 1,2 %, paxta yog'i narxlari 0,7 %ga oshdi.

O'tgan yilning oxiriga nisbatan 2019 yilning sentabr oyida sariyog' narxlari 12,7 %, kungaboqar yog'i 3,9 %, paxta yog'i 2,6 %ga qimmatlashgan.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yog' va moy mahsulotlarining iste'mol narxlarini indeksi, %



o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Umumiy ovatlanish maskanlaridagi narxlar har oyda 0,7 %dan 3,4 %gacha oraliqda ko'tarilgan. Sentabr oyida umumiy ovqatlanish muassasalaridagi narxlar oy davomida 1,8 %ga qimmatlashdi. 2018 yilning dekabr oyiga nisbatan ushbu guruh narxlarining o'sishi 16,5 %ni tashkil etdib, bu asosan oziq-ovqat mahsulotlari umumiy narxlarining o'sishi bilan bir qatorda, asosiy turdagi kommunal xizmatlar narxlarining oshishi, shuningdek, yoqilg'i-moylash materiallari narxlarining qimmatlashishi bilan bog'liq.

Kuzatilayotgan boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlari guruhlari ichida spirtli ichimliklar narxlarini joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 9,9 %ga, (jumladan sentabrda 0,5 %), alkogolsiz ichimliklar 11,8 %ga (sentabrda 1,2 %) qimmatlashdi.

Quyida yillik ko'rinishda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari guruhi narxlarining o'zgarishi taqdim etilgan.

2019 yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari guruhlarining iste'mol
narxlarini indeksi, %

o'tgan yilning sentabriga nisbatan



Non mahsulotlari

115,7 %



Go'sht, parranda
go'shti va baliq

122,7 %



Tuxum

128,4 %



Sut
mahsulotlari

118,7 %



Yog'
va moylar

112,2 %



Mevalar, sabzavotlar
va kartoshka

119,9 %



Shakar, choy va
boshqa mahsulotlar

110,9 %



Alkogolsiz
ichimliklar

112,3 %




Spirтли
ichimliklar

113,1 %

Yillik ko'rinishda tuxum narxlarini boshqalarga nisbatan yuqoriroq darajada qimmatlashdi (28,4 %). Narxlarining o'sishi bo'yicha keyingi o'rinlarda go'sht, parranda go'shti va baliq (22,7 %), meva va sabzavotlar (19,9 %), sut (18,7 %) va non mahsulotlari (15,7 %), spirtli (13,1 %) va alkogolsiz ichimliklar (12,3 %) band etgan.

Asosiy guruhlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'zgarishi va ularning umumiy indeks o'sishiga ko'rsatgan ta'siri tahlili quyidagicha: joriy yilning sentabr oyida asosiy inflyatsion ta'sir go'sht,


parranda go'shti va baliq guruhi narxlarini tomonidan kuzatilgan bo'lsa (0,29 f.d.), meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining arzonlashishi (-0,09 f.d.) inflyatsiyaning nisbatan barqarorlashishiga zamin yaratdi.



O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan joriy yilning sentabrida narxlarning qimmatlashishi va uning umumiy iste'mol narxlarini indeksi tarkibida ta'siri bo'yicha yetakchi o'rinlarni go'sht, parranda go'shti va baliq (1,92 f.d.) hamda non mahsulotlari egallagan (0,72 f.d.). Meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining arzonlashishi umumiy ko'rsatkichning 0,44 f.d.da pasayishiga olib keldi.

2019 yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari narxlarini o'zgarishining iste'mol narxlarini indeksi o'sishidagi ulushi, f.d.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



- meva, sabzavotlar va kartoshka
- non mahsulotlari
- go'sht, parranda go'shti va baliq
- sut mahsulotlari
- tuxum
- yog' va moylar
- shakar, choy va boshqa mahsulotlar
- boshqalar

Nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlarini indeksi

2019 yilning sentabr oyida nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarini o'rtacha 0,9 %ga qimmatlashishi oy davomidagi umumiy iste'mol narxlarini indeksining o'sishiga 0,3 f.d.da ta'sir etdi.


Umumiy hisobda joriy yilning to'qqiz oyi davomida ushbu guruh mahsulotlari narxlarini 8,8 %ga oshdi.

2018 yilning sentabr oyiga nisbatan yillik davr ko'rinishida nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sish sur'ati o'rtacha 12,1 %ni tashkil etdi.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
nooziq-ovqat mahsulotlarining
iste'mol narxlari indeksi, %

2019 yil sentabr



2018 yil sentabr



O'rtacha oylik o'sish sur'ati hisoblanishi natijalariga ko'ra, 2019 yilning yanvar-sentabrda nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi 0,9 %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2018 yilning yanvar-sentabrda nooziq-ovqat mahsulotlarining o'rtacha oylik iste'mol narxlari indeksi 1,0 %ni tashkil etgan.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
nooziq-ovqat mahsulotlarining
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan oyga nisbatan



2019 va 2018 yillarning to'qqiz oyi davomidagi nooziq-ovqat mahsulotlarining qisqa muddatli oylik iste'mol narxlari indeksi dinamikalarini taqqoslash natijalari quyida keltirilgan.

Shunday qilib, 2018 yilda ushbu tovarlar guruhidagi iste'mol narxlari indeksining eng yuqori darajadagi ko'rsatkichi yanvar oyida qayd etilgan bo'lsa (102,3 %), avgust va sentabr oylarida esa minimal ko'rsatkich ro'yxatga olingan (100,3 %). 2019 yilda narxlar indeksining maksimal darajasi avgust oyida shakllanib (102,1%), minimal ko'rsatkich iyul oyi hissasiga to'g'ri keladi (100,4 %). Ikki yil natijalari bo'yicha o'zaro taqqoslanayotgan davrdagi iste'mol narxlari indeksleri orasidagi sezilarli darajadagi tafovut yanvar (2019 yildagi 100,5 %ga qarshi 2018 yildagi 102,3 %) hamda avgust oyida qayd etilgan (102,1 %ga qarshi 100,3 %).

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2018 va 2019 yillarning taqqoslanayotgan davrlaridagi nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari o'zgarishi dinamikasi narxlarning o'sishi bo'yicha nisbatan o'xshash tendensiyani takrorlaydi. Biroq, 2018 yilning yanvar va iyul oylarida narxlarning yuqori darajada oshganligini hisobga olsa, 2018 yilning yanvar oyidan sentabr oylaridagi umumiy narxlar o'sishi 2019 yilning mos davridagi ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori bo'ldi (109,1 %ga qarshi 108,8 %).



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
nooziq-ovqat mahsulotlarining
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Yillik natijalar bo'yicha 2019 yilning to'qqiz oyi davomida nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksidagi minimal ko'rsatkich iyul oyida (109,5 %), maksimal natija esa sentabr (112,1 %) oyida qayd etilgan.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
nooziq-ovqat mahsulotlarining
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



Shunisi e'tiborga loyiqliki, 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol narxlarining o'sishi 2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada past bo'ldi.

2019 yilning sentabrida nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarida shaxsiy gigiena tovarlari va gilam mahsulotlari (1,5 %) oyoq kiyim va qurilish materiallari (1,1 %), kiyim-kechak, maishiy to'qimachilik


mahsulotlari, madaniy mollar hamda avtomobillar uchun yoqilg'i narxlari (0,9 %) oy davomida sezilarli darajada qimmatlashdi.

**2019 yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi
bo'yicha asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlari guruhlarining
iste'mol narxlari indeksi, %**

	2019 yilning avgustiga nisbatan	2018 yilning dekabriga nisbatan	
	Kiyim-kechak	100,9	107,5
	Oyoq kiyim	101,1	107,6
	Mato va eshilgan iplar	100,7	109,8
	Maishiy to'qimachilik mahsulotlari	100,9	107,9
	Madaniy mollar	100,9	111,7
	Qurilish materiallari	101,1	104,5
	Gilam va gilam mahsulotlari	101,5	107,5
	Asosiy maishiy tovarlar va elektr jihozlari	100,8	112,0
	Yuvish va tozalash vositalari	100,7	112,5
	Avtomobillar uchun yoqilg'i	100,9	122,4
	Kitoblar, gazetalar va jurnallar	100,5	120,4
	Shaxsiy gigiyena mahsulotlari	101,5	109,8

Yil boshidan avtomobillar uchun yoqilg'i (22,4 %), kitoblar, gazeta va jurnallar (20,4 %), yuvish va tozalash vositalari (12,5 %), asosiy maishiy mahsulotlar va elektr jihozlari (12,0 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi. Ushbu davr mobaynida madaniy buyumlar 11,7 %, shaxsiy gigiyena vositalari, matolar va eshilgan iplar 9,8 %, maishiy to'qimachilik mahsulotlari 7,9 %, oyoq kiyim 7,6 %, kiyim-kechak, gilam va gilam mahsulotlari 7,5 % va qurilish materiallari narxlari 4,5 %ga oshgan.

2019 yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlari guruhlarinarxlarinig o'zgarishi va unlarining umumiy iste'mol narxlari indeksi o'sishiga qo'shgan hissasi, f.d.




Joriy yilning sentabr oyida kiyim-kechak va oyoq kiyim narxlarining qimmatlashganligi umumiy iste'mol narxlari indeksining 0,09 f.d.da o'sishiga sabab bo'lib, o'z navbatida qurilish materiallari 0,04 f.d.da, dori-darmonlar, avtomobillar uchun yoqilg'i va shaxsiy gigiyena tovarlari narxlari 0,02 f.d.dan ta'sir etgan. Mato va eshilgan iplar, zargarlik buyumlari, mebel, gilam va gilam mahsulotlari, maishiy to'qimachilik mahsulotlari, asosiy maishiy buyumlar va elektr jihozlari, yuvish va tozalash vositalari narxlarining qimmatlashishi umumiy hisobda jami indeksga 0,05 f.d.da ta'sir etgan.

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan umumiy iste'mol narxlari indeksi o'sishiga kiyim-kechak va oyoq kiyim (0,76 f.d.), shuningdek, avtomobillar uchun yoqilg'i hamda maishiy yonilg'i (0,64 f.d.) narxlarining qimmatlashishi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Umumiy ko'rsatkichning o'sishiga asosiy maishiy buyumlar va elektr jihozlari narxlarining qimmatlashishi 0,21 f.d.da, qurilish materiallari 0,19 f.d.da, yuvish va tozalash vositalari 0,18 f.d.da, shaxsiy gigiyena tovarlari 0,16 f.d.da, maishiy to'qimachilik mahsulotlari, mato va eshilgan iplar umumiy hisobda 0,16 f.d.da, madaniy mollar va aloqa vositalari 0,14 f.d.da, dori-darmonlar 0,13 f.d.da ta'sir etdi. Bundan tashqari, nooziq-ovqat mahsulotlarining asosiy guruhlari narxlarining o'sishi va umumiy indeksga ta'siri bo'yicha navbatdagi o'rinlar mebel, gilam

va gilam mahsulotlari (0,11 f.d.) hamda zargarlik buyumlari (0,08 f.d.) guruhi mahsulotlariga tegishlidir.

2019 yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlari guruhlarinarxlarinig o'zgarishi va unlarining umumiy iste'mol narxlari indeksi o'sishiga qo'shgan hissi, f.d.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Yillik ko'rinishda 2019 yilning sentabr oyi uchun nooziq-ovqat mahsulotlar asosiy guruhlarining iste'mol narxlaridagi o'zgarishlar quyidagi ko'rinishda taqdim etilgan:

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %

Nomi	2019 yil sentabr 2018 yilning sentabriga nisbatan
Kiyim-kechak	112,2
Oyoq kiyim	111,3
Gazlama va eshilgan iplar	113,6
Qurilish materiallari	104,7

Davomi

Nomi	2019 yil sentabr 2018 yilning sentabriga nisbatan
Mebel	109,7
Gilam va gilam mahsulotlari	112,4
Maishiy to'qimachilik mahsulotlari	112,2
Asosiy maishiy tovarlar va elektr jihozlar	114,8
Oshxona anjomlari	110,2
Yuvish va tozalash vositalari	116,0
Avtomobillar uchun yoqilg'i	132,7
Madaniy mollar	113,3
Aloqa vositalari	116,8
Kitob, gazeta va jurnallar	120,8
Shaxsiy gigiyena vositalari	113,1
Tamaki mahsulotlari	111,1
Qishloq xo'jaligi anjomlari	109,2

O'tgan yilning mos oyiga nisbatan 2019 yilning sentabr oyida avtomobillar uchun yoqilg'i (32,7 %), bosma nashr mahsulotlari (20,8 %), aloqa vositalari (16,8 %), yuvish va tozalash vositalari (16,0 %), asosiy maishiy buyumlar va elektr jihozlari (14,8 %), mato va eshilgan iplar (13,6 %), madaniy mollar (13,3 %) hamda shaxsiy gigiyena tovarlari (13,1 %) narxlarining sezilarli ravishda ko'tarilishi kuzatilgan

Umumiy iste'mol narxlari indeksi hisoblash uchun tovarlar va xizmatlar to'plamida nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining salmoq vaznini hisobga olgan holda yillik davrda umumiy ko'rsatkichga kiyim-kechak (0,84 f.d.) va avtomobillar uchun yoqilg'i (0,83 f.d.) narxlarining oshganligi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan.

Xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi

2019 yilning sentabr oyida aholi uchun pullik xizmatlar tariflari 2,0 %ga qimmatlashib, oy davomidagi umumiy iste'mol narxlari indeksining ko'tarilishiga 0,4 f.d.da ta'sir etdi




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
pullik xizmatlarning
iste'mol narxlari, %



2019 yil sentabr



2018 yil sentabr



2019 yil boshidan ushbu sohadagi tariflar narxlari o'rtacha 13,7 %ga ko'tarilib, narx indeksining o'rtacha oylik o'sish sur'ati 1,4 %ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos oyiga nisbatan tariflar 19,5 %ga ko'tarilgan.

2019 yil boshidan o'tgan davr mobaynida tariflarning oy davomidagi maksimal darajada qimmatlashishi joriy yilning avgustida kuzatilgan bo'lib (oy davomida 5,6 %), bu o'z navbatida asosiy turdagi uy-joy

kommunal to'lovlarida yangi tariflarning amaliyotga joriy qilinishi bilan bog'liq.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
aholi uchun pullik xizmatlarning
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



2018 y.


2019 y.

2018 va 2019 yillarning yanvar-sentabr oylaridagi tariflar o'sishini o'zaro taqqoslasak, 2019 yilning avgust oyidagi narxlarning ko'tarilishi yanvar-iyul oyi natijalaridan farqli ravishda tub burilish kasb etdi va joriy yilning yanvar-avgust oyi natijalari o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan o'zib ketdi (11,5 %ga qarshi 8,9 %). Ushbu tendensiya sentabr oyida ham davom etdi (2019 yilning yanvar-sentabr oyidagi 113,7 % qarshi 2018 yilning yanvar-sentabr oyidagi 110,1 %).

Joriy yilning sentabr oyida ushbu guruh orasida asosiy inflyatsion omil sifatida mamlakatimizning oliy o'quv yurtlarida shartnoma asosida ta'lim olish narxlarining ko'tarilganligidir. Yangi o'quv yilidan boshlab kuzatilayotgan yo'nalishlar bo'yicha to'lov miqdori narxleri o'rtacha 18,7 %ga qimmatlashdi. Shu bilan birga, xorijiy tillarni o'qitish (3,7 %ga) va haydovchilikka o'qitish (2,2 %ga) kurslari narxleri ham oshdi. Bularning barchasi ta'lim xizmatlarining iste'mol tariflari indeksining oyiga 112,8 % tashkil etishiga olib keldi.

2019 yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlar asosiy guruhlarining iste'mol narxleri indeksi, %

o'tgan oyga nisbatan



Kuzatilayotgan aholi uchun boshqa xizmat turlaridan tibbiy xizmatlar bir oy ichida 2,9 %ga, sport xizmatlari 2,0 %ga, maishiy xizmatlar 1,9 %, yo'lovchi tashish transporti 1,7 %, dam olish va madaniyat muassasalari

xizmatlar 0,7 %, aloqa 0,4 %, uy-joy kommunal xizmatlar narxlari 0,2 %ga qimmatlashdi.

2019 yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun alohida turdagi pullik xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi, %

Xizmatlar nomi	2018 yilning dekabriga nisbatan	2018 yilning sentabriga nisbatan
Maishiy xizmatlar	114,9	119,2
Uy-joy kommunal xizmatlari	117,7	129,8
Yo'lovchi transporti xizmatlari	110,1	115,7
Aloqa xizmatlari	104,8	105,2
Madaniyat muassasalari xizmatlari	106,2	110,4
Sport xizmatlari	110,3	112,9
Dam olish xizmatlari	111,5	112,6
Tibbiy xizmatlar	109,9	113,9
Ta'lim xizmatlari	121,3	122,7
Maktabgacha ta'lim muassasalari xizmatlari	120,5	120,5

Joriy yilning sentabr oyidan boshlab mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida o'qish narxining oshishi ta'lim xizmatlari nafaqat oy uchun, balki shu yilning to'qqiz oyi uchun ham tariflarning o'sishi bo'yicha yetakchiga aylanishiga olib keldi.


Bundan tashqari, 2018 yil oxiriga nisbatan budjetdan moliyalashtiriladigan maktabgacha ta'lim muassasalarining xizmatlari 20,5 %, uy-joy kommunal xizmatlari 17,7 %, maishiy xizmatlar 14,9 %, dam olish xizmatlari 11,5 %, sport 10,3 %, yo'lovchi tashish transporti

10,1 %ga qimmatlashdi. Kuzatilayotgan boshqa xizmat turlari narxlarining o'sishi 10,0 %dan oshmadi.

Yillik hisobda uy-joy kommunal xo'jaligi (29,8 %), ta'lim (22,7 %), maktabgacha ta'lim muassasalari xizmatlari (20,5 %) sohasidagi narxlar sezilarli darajada oshdi. Boshqa turdagi tariflarning o'sishi 5,2 % dan 19,2 % gacha bo'lgan oraliqni tashkil etgan.

Oy davomida umumiy iste'mol narxlari indeksining o'sishiga qo'shgan hissasi kelsak, joriy yilning sentabr oyidagi yetkchilik ta'lim xizmatlari narxlariga tegishlidir (0,23 f.d.).

2019 yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlar asosiy guruhlari narxlarning o'sishi va uning iste'mol narxlari indeksiga ta'siri, f.d.




Transport va aloqa xizmatlari tariflarining oshishi, shuningdek, maishiy xizmatlar narxlari oy davomida iste'mol narxlari jamlanma indeksining ko'tarilishiga jami 0,14 f.d.da, tibbiy xizmatlar narxlarining o'sishi esa qo'shimcha ravishda 0,06 f.d.da ta'sir ko'rsatgan.

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan umumiy iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichining o'sishiga uy-joy kommunal xizmatlar narxlarining qimmatlashishi muhim hissa qo'shdi (1,07 f.d.).

2019 yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlar asosiy guruhlari narxlarning o'sishi va uning iste'mol narxlari indeksiga ta'siri, f.d.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



2018 yilning dekabr oyiga nisbatan uy-joy kommunal xizmatlaridan tashqari umumiy ko'rsatkichning o'sishiga maishiy xizmatlarning narxlari va tariflarining oshishi (0,52 f.d.), transport va aloqa (0,45 f.d.), ta'lim (0,38 f.d.), maktabgacha ta'lim muassasalari (0,21 f.d.) va tibbiy xizmatlar (0,20 f.d.) narxlarining qimmatlashishi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan.

Narxlar statistikasi boshqarmasi

71-230-80-36

71-230-81-74